RAQAMLI TA'LIM RESURSLARI ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA YO'L HARAKATI QOIDALARIGA DOIR TA'LIM TIZIMINI TASHKIL QILISH

Jumayev Yunus Rashidovich-Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va utaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim menejmenti kafedrasi" katta o'qituvchisi
E-mail: yjumayev07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarga yo'l harakati qoidalarini raqamli texnologiyalar hamda raqamli ta'lim resurslari orqali ta'lim berishni tashkil qilish va bollar o'rtasida sodir bo'layotgan yo'l transporti hodisalarini oldina olish kabilar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim resurslari, yo'l harakati qoidalari, bolalar, ta'lim jarayonlari, zamonaviy texnologiyalar, pedagoglar, raqamlashtirish.

Ta'lim bu har bir davlatning qurilish asoslaridan va yurtning tayanch poydevoridir. Bu haqiqatni anglagan davlatlar kundan-kunga ta'limga katta e'tibor bermoqdalar. Xususan, ta'lim sohasida eng so'nggi ilg'or texnalogiyalarni qo'llash, zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanish zamon talabiga aylanganligini ko'rish mumkin. Axborot texnologiyasi bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo'lib, ular yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etish mumkin. Ayniqsa raqamli texnologiyalarni fan tarmoqlari bo'yicha to'g'ri qo'llash juda yaxshi va samarali natijalarga olib keladi.Har bir sohada bo'lgani kabi ta'limda ham zamonaviy texnologiyalar kirib kelib ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'layotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Shu o'rinda bir tabiiy savol tug'iladi.

Raqamli texnologiya o'zi nima? Bu-xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida har bir daqiqani hisobga olgan holda ish olib borish zarur hisoblanadi. Xususan, dars mashg'ulotlari davomida har bir fan va darslikni o'zlashtirish uchun ajratilgan ma'lum bir vaqt mavjud bo'lib, shu muddat ichida darsning samaradorligiga erishish lozim bo'ladi. Bu esa pedagog va o'qituvchidandan yuksak mahorat, bilim va tajribadan tashqari zamonaviy texnologiyalarni va raqamli ta'lim resurslaridan foydalana bilish ko'nikmasini talab etadi. Albatta ta'limga biror

yangi texnologiyani olib kirishda tajriba ishlari olib borilishi kerak bo‘ladi. Ta’lim tizimi eng dolzarb masala bo‘lib, qolgan barcha sohalarga bevosita kadr yetkazib beruvchi soha hisoblanadi. Shuning uchun bevosita yangi islohotlarni, zamonaviy texnologiyalarni, raqamli ta’lim resurslar kabi yangiliklarni ta’limdan boshlash lozim bo‘ladi. Bu esa tez orada boshqa yo‘nalishlarda ham o‘z hosilasini ko‘rsata boshlaydi. Chunki raqamli ta’lim resurslari, zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini ko‘rgan kadr o‘z sohasiga oid bo‘lgan yuqori texnologiyalarga murojaat etib, raqamlashgan tizimga o‘ta boshlaydi. So‘nggi yillarda ta’limni “raqamlashtirish” muommolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir. Hamma soha va tarmoqlarni raqamlashtirish bugun barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda jadallik bilan olib borilmoqda. Ayniqsa, pandimiya sharoitida bu kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida masofadan ishlash imkoniyatiga katta ehtiyoj tug‘ildi. BMT tomonidan keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, 2022-yilga kelib, dunyo bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga bog‘liq bo‘lib qolishi prognoz qilinayotgan hozirgi sharoitda, bu yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish eng to‘g‘ri strategik yo‘nalish hisoblanadi. Albatta dunyo iqtisodiyotning chorak qismi chakana ko‘rsatkich emas, bundan tashqari bu ko‘rsatkichlar kundan-kunga o‘sib borayotganligiga hammamiz guvohmiz. Shunday ekan biz uchun eng samarali yo‘l tez orada hamma tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni va raqamli ta’lim resurslarini joriy etish va undan foydalanishning eng samarali va mahsuldor yo‘llarini amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi. O‘ylaymizki, interfaol o‘yinlardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayoni sifatini oshiradi, balki guruh bolalarining, mutaxassislar va ota-onalar o‘rtasida masofaviy muloqotni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Avvalo shuni esda tutish kerakki, zamonaviy texnologiyani qo‘lga kiritishning o‘zi etarli emas, u foydali bo‘lishi uchun u bilan ishlay olish muhimdir. Xususan, bolalar bilan bevosita ta’lim va bo‘sh vaqtni o‘tkazish jarayonida yangi jihozlarning imkoniyatlaridan foydalana olish kerak. Zamonaviy axborot maydoni nafaqat boshlang‘ich maktabda, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda ham kompyuter bilimlarini talab qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarning erta ta’lim sohasidagi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Interfaol va multimedia vositalari bolalarni yangi bilim olishga intilishga ilhomlantirish va rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan. Interfaol doska o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, bolaning motivatsiyasini oshirishga imkon beradi. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda hozirgi kunda barcha ta’lim tashkilotlarida foydalanish asosiy maqsad sifatida qarash mumkin. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish (rang, grafik, tovush, zamonaviy video jihozlar) turli vaziyatlar va muhitlarni

simulyatsiya qilish imkonini beradi. Multimedia dasturlariga kiritilgan o'yin komponentlari tarbiyalanuvchilarning kognitiv faolligini faollashtiradi va materialni o'zlashtirishni kuchaytiradi. Interaktiv ta'lim vositalariga aylanadi ajoyib yordamchilar tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini diagnostika qilishda: diqqat, xotira, fikrlash, nutq, shaxsiyat, o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish. Raqamli ta'lim resurslari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga eng yaqin va tushunarli bo'lgan majoziy turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Harakat, tovush, animatsiya bolalarning e'tiborini tortadi. Bolalarda harakat qilish va o'ynash istagi paydo bo'ladigan hissiy va kognitiv zaryad oladi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ixtisoslashtirilgan kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa dolzarbdir. Interfaol o'yinlarning asosiy vazifalaridan biri bolaga ota-ona va pedagogik ta'sirning passiv ob'ekti emas, balki faol sub'ektga aylanishiga yordam berishdir. Bu bolaga ongli ravishda bilim olish imkonini beradi. Zamon talabi shuni ta'lab qiladiki, hozirgi paytda raqamli ta'lim resursalari orqali tarbiyalanuvchilarga yo'l harakati qoidalarini o'gatishda biz maktabgacha ta'limdan boshlash o'rinli bo'ladi. Bu esa bollalar o'rtasidagi yo'l harakari qoidalarining buzilishi va mudhish voqeyliklarning oldina olgan bo'lar edik. O'zbekistonda 2021-yilning o'zidayoq 10 mingdan ziyod avariya sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq odam jarohatlandi, 2,5 mingga yaqin, jumladan 263 nafar bola halok bo'lgani katta fojiadir. Shuning uchun ham yo'l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, yo'l harakati xavfsizligini nazorat qilish va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2022 yil 4 apreldagi PQ-190-son qaroriga muvofiq ravishda 2022 yilning 12 aprelida Vazirlar Mahkamasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi 172-sonli qarori qabul qilindi va ilova tariqasida yangi mazmundagi "Yo'l harakati qoidalari" amalga joriy etildi. Unga "Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari atrofidagi yo'llarda 300 metrgacha bo'lgan masofada 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanish" kabi qoidalar kiritildi. Raqamli ta'lim resurslari orqali ta'lim berishda bolalar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatib mashg'ulotlarni o'zlashtirishda yetarli bilim ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Ma'lumki, bolaning xavf-xatarga bo'lgan reaksiyasi u aniqlangan paytdan boshlab kattalarnikidan taxminan ikki baravar ko'p va 1,3-1,5 soniyani tashkil qiladi. Yo'lda vaziyat qanchalik xavfli bo'lsa, bola shunchalik sekin va noto'g'ri qaror qabul qiladi. Shuning uchun kattalar maktabgacha yoshdagi bolani yolg'iz tashqariga chiqishiga yo'l qo'ymaslik va kattalar doimo qo'lini ushlab turishlari lozim.

Pedagogning kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning yo'l harakatida xavfsiz ishtirok etishga o'rgatishning maqsadi – Raqamli ta'lim resurslari orqali bolalarning yoshiga doir psixo-fizologik xususiyatlarini inobatga olgan tarzda, ularda oddiy YHX qoidalariga doir boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

Ta'limning maqsadi. Raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim resurslari orqali elementar (oddiy va sodda ko'rinishdagi) didaktik vosita va didaktik rolli (yo'llarda xavfsiz harakatlanish qoidalarini o'zlashtirish rolidagi jismoniy shaxs sifatida) o'yinlar orqali piyoda harakatlanuvchi bolalarda YHX qoidalariga doir boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati.

1. M.A.Abdullayeva Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma 2020-y

2. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma – T.: "Voris", 2013.

3. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoyev S. Web-texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.; "Faylasuflar jamiyati", 2013

4. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017-y.

5. Yo'l harakati qoidalari *(ertalabki davra suhbati)*. Nigmatov A.N., Buriev X.K., Mirsaatova Sh.R. *O'quv qo'llanma.*–Toshkent, 2023. – 88 b.